

## TEXNIKA XAVFSIZLIGI VA MEHNAT MUHOFAZASI QOIDALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11408381>

*Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tuman 1-son kasb hunar maktabi*

*Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchisi*

**Sodiqova Sabohat Choriyevna**

*Maxsus fan o'qituvchisi*

**Sultonova Maqsuda Aralovna**

*Yo'l harakati va qoidalar fani o'qituvchisi*

**Axatov Jasurbek Shuxratovich**

*Ishlab chiqarish ta'lim ustasi*

**G'afforova Maryam Jabborovna**

### **Annotatsiya**

*Inson hayotining xavfsizligini ta'minlash muammosi har bir jamiyat uchun dolzarb masala bo'lib, u davlatning iqtisodiy rivojlanganligi va barqarorligiga bog'liqligi haqida fikr yuritilgan.*

### **Kalit so'zlar**

*Mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, ishlab chiqarish, himoya*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va siyosiy sohalardagi barcha islohotlarning asosiy maqsadi yurtimizda yashayotgan barcha fuqarolar uchun munosib hayot sharoitlarini yaratib berishga qaratilgandir. Albatta, munosib hayot sharoitini yaratish ilmiy-texnik taraqqiyot asosida amalga oshiriladi va bu inson mehnatini yengillashtirish bilan bir qatorda, turli xil xavfli faktorlarni vujudga keltiradiki, natijada har xil ko'rinishdagi baxtsiz hodisalar: jarohatlanishlar, shikastlanishlar va kasb kasalliklari vujudga keladi. Lekin, bu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson yaxshi yashashni, ya'ni o'zining moddiy-ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini to'liqroq qondirishni istaydi. Aynan shu sababli inson tinimsiz faoliyatda bo'ladi.

Faoliyat – insonning yashashi uchun zarur bo'lgan asosiy shart-sharoitlardan biridir. Mehnat – faoliyatning oliy shaklidir. Falsafiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, «inson» tushunchasiga eng xos aniqlanish «Homo agens», ya'ni «Harakatdagi inson»dir. Albatta, faoliyat va mehnat shakli turlicha bo'lib, u hayotdagi ishlab chiqarish, madaniyat, jamoat ishlari, ilmiy ishlar va boshqa sohalardagi amaliy, intellektual hamda ma'naviy jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Ishlab chiqarishda mehnatni tartibsiz, amaldagi qonunqoidalar, standartlar va ko'rsatmalarga amal qilmasdan amalga oshirilishi, nafaqat jarohatlanish yoki shikastlanishni keltirib chiqarishi, balki ayrim hollarda o'limga ham olib kelishi mumkin. Tabiiyki, bu insonni o'zining mehnat faoliyatidagi tabiiy, texnik, antropogen, ekologik va boshqa turdagi barcha xavfli faktorlardan himoyalashni ilmiy asosda tashkil qilishni talab etadi.

Hozirgi vaqtda ilmiy-texnik taraqqiyot keltirib chiqargan murakkab muammolarni har tomonlama yechishni, katta miqdorda mablag' va ishlab chiqarishning yuqori madaniyatini talab qiladigan muammodir. Bu esa faqat iqtisodiy qudratli, kuchli ilmiy-texnik va intellektual imkoniyatlarga ega bo'lgan davlatning qo'lidan keladi. Boshqa tomondan xavfsizlik muammolarining yechimi jamiyatning barcha a'zolarining faol ishtirokini, yuqori fuqarolik ongini, ayrim hollarda jamiyat, kelajak avlod manfaati uchun, shaxsiy manfaatlardan kechishini talab qiladi. Bu esa jamiyat a'zolaridan yuksak madaniyatli va kuchli ma'naviyatlikni talab qiladi. Bu tamoyillarning yechimi chuqur tahlil qilingan va tashkil qilingan uzluksiz, ya'ni ta'limning barcha o'timlarini qamrab olgan ta'lim va tarbiya tizimlaridagina mumkin. Ma'lumki, mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda ta'lim tizimi isloh qilindi va unda ta'limning uzluksizligiga katta ahamiyat berildi. Xavfsizlikni ta'minlash ruhida o'qitish va tarbiyalash ayniqsa texnik o'quv yurtlarida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki yangi texnika va texnologiyalarni bo'lg'usi yaratuvchilarini va ishlab chiqarish rahbarlarini shu ruhda tarbiyalash ushbu muammoni samarali bo'lishida katta rol o'ynaydi. Bo'lg'usi mutaxassislarini shakllantirishdan asosiy maqsad har qanday muhandislik masalasini hal qilishda, bu ilmiy izlanish bo'ladimi, loyiha-konstruktorlik ishi bo'ladimi, ishlab chiqarishning tashkiliy va boshqaruv masalasi bo'ladimi asosiy tamoyil-inson salomatligi va hayotini muhofaza qilish ekanligini unutmaslikdir. Inson xavfsizligini ta'minlash ayniqsa uni ish jarayonida bevosita ishlab chiqarishda o'z dolzarbligini ko'rsatadi. Chunki zamonaviy korxonalarining xarakterli tomoni shundaki, unda bir korxonaning o'zida turli-tuman va tez o'zgaruvchan texnologik jarayonlarda materiallar, yuqori darajali mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan elektr hisoblash texnikasi bilan jihozlangan zamonaviy potok tizimlar qo'llanilmoqda. Bular albatta bir tomondan jarayonlarni qisqartirishga mahsulot sifatini yaxshilashga va mehnat sharoitini xavfsizlantirishga qaratilgan, lekin ikkinchi tomonidan ularda ishlovchi ishchilardan katta diqqat, sezuvchanlik va butun ish kuni davomida aqliy zo'riqish talab qiladi. Bu esa asablarning taranglashuviga va pirovard natijada kasbiy kasallik va jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin. Texnologik jarayonning

murakkabligi, texnologik rejimlarga bo'lgan talablarning yuqoriligi mehnat muhofazasi tadbirlariga bo'lgan talablarning ortib borishini talab qilmoqda. Ishlab chiqarish xavfsizligi muammolarini o'rganish uslubiy jihatdan murakkablashib, aktuallashib boryapti. Transport korxonalarida mehnat sharoitlarini yaxshilash va yuqori xavfsizlik satxini ta'minlash uchun barcha texnik, tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy usul va vositalarini qo'llash talab etiladi. Texnika xavfsizligi qoidalari metodologik asosi – mehnat sharoitini, texnologik jarayonni, ajralib chiqadigan zararli moddalarni va foydalanish vaqtida paydo bo'ladigan xavfli vaziyatlarni ilmiy tahlil qilishdir. Bu tahlil asosida ishlab chiqarishdagi xavfli joylar, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavfli vaziyatlar aniqlanadi, ularni oldini olish va yo'qotish choralari ishlab chiqiladi. Bu masalalarni hammasi o'zaro bog'langan holda, kelajak rejalarni hisobga olgan holda ko'riladi.

Mehnat xavfsizligining asosiy masalalaridan biri ishlovchilarning xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ish hisoblanadi. Zamonaviy ishlab chiqarish uni doimiy ravishda texnik jihatdan qurollantiruvchi, kimyoviy va mikrobiologik vositalardan foydalanishi, mobillashgan jarayonlarning keng qo'llanilishi bilan xarakterlanadi. Bunday sharoitlarda xavfsizlik talablarning buzilishi, baxtsiz hodisalarga olib keladigan xavfli holatlarni keltirib chiqaradi. Mehnat xavfsizligi, bu shunday mehnat sharoitiki, bunday ishlab chiqarishda ishchilarga zararli va xavfli omillarning ta'sirini butunlay oldi olingan bo'ladi. Ishlab chiqarish sharoitida odamlar ishlab chiqarishning fizik va kimyoviy omillaridan jarohatlanadi. Bino-inshootlarning xavfli fizikaviy omillari harakatlanayotgan mashinalar, uskunalarning himoyalangan qo'zg'aluvchan elementlari, harakatlanuvchi buyumlar, materiallar, uskunalari yoki materiallarning sirtidagi yuqori yoki pastki haroratlar, elektr tarmog'idagi xavfli kuchlanishlar, qisilgan havoning gazning energiyasi, portlashlar, to'lqin zarbi va shunga o'xshashlar hisoblanadi. Insonlarning sog'ligi uchun ayniqsa ishlov berilayotgan materillardan va instrumentlardan uchayotgan qismlar jiddiy xavf tug'diradi. Bino-inshootlarning xavfli omillari namoyon bo'lish xarakteri bo'yicha ochiq va yopiq turlarga bo'lish mumkin. Ochiq xavfli omillar ochiq tashqi belgilari mavjudligi bilan xarakterlanadi. Bunga mashinalarning harakatlanayotgan qismlari, yong'in ko'tarilgan va tarozidagi osilgan holda turgan yuklar kiradi. Yopiq xavflar mashina, mexanizm, jihoz va asboblardagi ko'zga ko'rinmas nuqson va kamchiliklar yoki ma'lum avariya va xavfli holatlarda paydo bo'ladigan kamchilik ko'rinishida bo'ladi. Ishchilar xavfning manbaiga bevosita tekkanda yoki unga qo'l qo'yib bo'lmaydigan masofaga yaqinlashganda jarohatlanishi mumkin. Inson sog'ligiga va hayotiga xavf tug'diradigan xavfli ishlab chiqarish omillari doimo

mavjud bo'lgan yoki vaqti-vaqti bilan namoyon bo'ladigan fazo xavfli zona hisoblanadi. Texnologik jarayonlarga xavfsizlik talablari esa texnologik hujjatlarda bayon etilishi kerak. Bino-inshootlar xavfsizligini ta'minlovchi asosiy omillaridan biri uskunalarga xizmat qiluvchi xodimlarini kasbiy tayyorgarligi va bajaraidgan ishiga ularning jismoniy imkoniyatini mavjudligidir. Inshootlarda ishlab chiqarish uskunalarga, mashina va mexanizmlarga mehnat sharoiti va ularning elementlari, uskunalarni konstruksiyalarini hisobga olgan holda, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavfli va zararli omillar manbaini aniqlashdan so'ng, xavfsizlik talablari belgilanadi. Mehnatni muhofaza qilish nuqtayi nazaridan uskunalarga qo'yilgan asosiy talablarga: insonlar sog'ligi va hayoti uchun xavfsizlik hamda ularni ishlatishda ishonchlik va qulayliklar kiradi. Ishlab chiqarish uskunalari yong'in va portlashga xavfsiz bo'lishi kerak. Ularning konstruksiyasida qo'llaniladigan materiallar zararli, xavfli bo'lmasligi, ularning harakatlanadigan aylanadigan qismlari xavf manbalari hisoblanadi va shu sababli ular xavfsiz qilib to'silgan bo'lishi kerak. Uskunalar avariya sodir bo'lganida o'chirish lozim bo'lgan tugmalari, dastaklari ularning ko'rinadigan va qulay joyda joylashtirilishi kerak. Bu talabni bajarish uchun ular qizil ranglarga bo'yab qo'yilganda yanada osonlashadi. Bino-inshootlarining bunday muammolarini oldini olish, jarohatlanishga qarshi kurashni, baxtsiz hodisalarni oldini oluvchi zamonaviy vositalardan keng foydalanmasdan turib hal qilib bo'lmaydi. Insonni xavfli ishlab chiqarish omillaridan himoyalash usuli: aktiv va passiv bo'ladi. Aktiv himoya xavfli omil hosil bo'lishini yo'qotishga yoki uning xavflilik darajasini kamaytirishga yo'naltiriladi. Passiv himoya xavfli omillarning insonga ta'sirini oldini oluvchi kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bunga insonni xavfli zonadan chiqarish yoki insonni xavfli zonada bo'lmasligi uchun sharoit yaratish bilan erishiladi. Passiv himoyalash ishlab chiqarish jarayonini tashkillashtirish uskuna va jihozlarni konstruksiyalarini yaxshilash orqali ta'minlanadi. Agar qayd qilingan tadbirlar bilan ishlovchilarning xavfsizligini to'laligicha ta'min etilmasa, individual himoya vositalarini (kaskalar, ko'z oynaklar, respiratorlar va boshqalar) qo'llanilishini taqozo etadi. Himoya vositalarini ish jarayoniga shunday jihozlash kerakki, aksincha holatda himoya vositalari bilan ish jarayonini bajarish mumkin bo'lmasin. Himoyalovchi qurilma xavf paydo bo'lishi bilan ishga tushishi va xavfli yoki zararli omilning ta'siri to'xtamaganicha o'zini ishchi holatini to'xtatmasligi kerak. Himoyalovchi qurilmalarning konstruksiyasi shunday bo'lishi kerakki, uning biror alohida elementining ishlamasligi, boshqa himoya vositalarining ishini to'xtatmasligi va qo'shimcha xavf tug'dirmasligi kerak. Himoya vositalari unga texnik xizmat ko'rsatish va nazorat qilish uchun qulay bo'lishi kerak. Zarur

hollarda himoya vositalari ishini nazorat qilish uchun ular avtomatik qurilmalar bilan ta'minlanishi kerak. Zamonaviy mexanizmlardan qurilmalarda hamda texnologik liniyalarda ishlarni xavfsizligi to'siq, xavfdan saqlovchi qurilmalari va signal, masofadan boshqarish sistemasi, individual himoya vositalaridan foydalanish va himoyalovchi vositalar sozligini muntazam nazorat qilishini ta'minlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, «O'zbekiston», 1992-y.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Toshkent, 1996-y.
3. O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni. Toshkent, 1993-y.
4. Rahimov O. D. Hayot faoliyati xavfsizligi. /Ma'ruzalar matnlari to'plami. Toshkent, 1999-y.
5. Rahimov O.D. Mehnatni muhofaza qilish / Ma'ruzalar matnlari to'plami, II nashri. Oliy ta'limning «Neft va gaz ishi» ta'lim yo'nalishi uchun. Qarshi, 2003-y.